TIBBIYOT
TA'LIMI & INNOVATSIYALARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
19 20
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

Google scholar

PubMed MEDLINE

NIH U.S. National Library of Medicine National Institutes of Health | Advancing Health Through Knowledge



- 14.00.00 - Tibbiyot fanlari;
- 14.00.01 - Akusherlik va ginekologiya;
- 14.00.02 - Morfologiya;
- 14.00.03 - Endokrinologiya;
- 14.00.04 - Otorinolaringologiya;
- 14.00.05 - Ichki kasalliklar;
- 14.00.06 - Kardiologiya;
- 14.00.07 - Gigiena;
- 14.00.08 - Oftal'mologiya;
- 14.00.09 - Pediatriya;
- 14.00.10 - Yuqumli kasalliklar;
- 14.00.11 - Dermatologiya va venerologiya;
- 14.00.12 - Tibbiy reabilitologiya;
- 14.00.13 - Nevrologiya;
- 14.00.14 - Onkologiya;
- 14.00.15 - Patologik anatomiya;
- 14.00.16 - Normal va patologik fiziologiya;
- 14.00.17 - Farmakologiya va klinik farmakologiya;
- 14.00.18 - Psixiatriya va narkologiya;
- 14.00.19 - Klinik radiologiya;
- 14.00.20 - Tibbiy genetika;
- 14.00.21 - Stomatologiya;
- 14.00.22 - Travmatologiya va ortopediya;
- 14.00.23 - Hamshiralik ishini tashkil etish;
- 14.00.24 - Sud tibbiyoti;
- 14.00.27 - Xirurgiya;
- 14.00.28 - Neyroxirurgiya;
- 14.00.41 - Xalq tabobati;
- 14.00.35 - Bolalar xirurgiyasi;
- 14.00.34 - Yurak-qon tomir xirurgiyasi

№8-SON


2026-yil, avgust

tibbiyot-talimi-va-innovatsiyalari.uz

https://t.me/tibbbiyot_2100


Litsenziya raqami: №745444













Tahrir hay’ati a’zolari:



BOSH MUHARRIR:
Shuhrat Baymuradov Abdujalilovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:
Iminov Komiljon Odiljonovich
tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

“Tibbiyot ta'limi va innovasiyalari” ilmi elektron jurnali 29.04.2025-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669801 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: №745444.

Tahrir hay’ati a’zolari:



Sharipov Kongratbay Avezimbetovich
Texnika fanlari doktori (DSc), professor



Ishanqulov Artiqboy Eshboyevich
Biologiya fanlari doktori (DSc), professor



Otamuradov Furqat Abdukarimovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent.



Shuxrat Jumayevich Teshayev
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



Oral Aminovna Ataniyazova
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



Jalolova Feruza Maxamatjanovna
Tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (DSc), dotsent



Uraqov Shokir Ulashovich
tibbiyot fanlari doktori doktori (DSc)

"TIBBIYOT TA’LIMI VA INNOVATSIYALARI"
ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2024-yil 9-oktabrdan boshlab c-5669651 raqami ostida rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Murojaat uchun telefon:
+998 97 748 70 03
Email: @munis_sm

MUNDARIJA

TOSHKENT XALQARO MOLIYA MARKAZI VA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: YANGI QONUNNING AHAMIYATI 12
Shuhrat Boymurotov

IMPROVEMENT OF THE SURGICAL APPROACH TO THE TREATMENT OF CRANIOVERTEBRAL JUNCTION ANOMALIES ASSOCIATED WITH SPINAL MALFORMATIONS (CLINICAL EXPERIENCE) 17
Arzikulov Sh.T., Ismailova R.O., Jabborov N.I.

ARTERIAL GIPERTENZIYA VA 2 TIP QANDLI DIABET: PATOGENETIK BOG‘LIQLIKLAR VA GENETIK PREDISPOZITSIYA 25
Ellamonov Suxrobjon No‘mon o‘g‘li

BOLALARDA PSORIAZNING KLINIK-BIOKIMYOVIY, IMMUNOPATOGENETIK XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA KOMPLEKS DIAGNOSTIKA VA TERAPIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 32
Xaitov Kaxramon Najmitdinovich, Abidov Xasanxodja Alisherovich, Maxkamova Muxlisa Farxadovna

GLUTEN BILAN BOG‘LIQ SALOMATLIK XAVFLARI VA OZIQ-OVQAT NAZORATINING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI: TANQIDIY ADABIYOTLAR SHARHI 48
Abdullaeva Dilafruz G‘ayratovna, Razikov Farrux Ibragim o‘g‘li, Abdullaeva Dilafruz G‘ayratovna

SLEEP AND CIRCADIAN RHYTHMS IN RELATION TO ANDROGEN STATUS IN MIDDLE-AGED MEN: CURRENT EVIDENCE AND CLINICAL IMPLICATIONS 58
Feruza Lyutpillayevna Azizova, Abdukhalim Kholiddin ugli Abdurakhimov

BOLALARDAGI NEYROGEN DEFORMATSIYALARNING UMUMIY KLINIK TAVSIFI VA ULARNI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR TAHLILI 66
Xalimov Ravshan Jurabayevich

KESARCHA KESISHDAN KEYINGI UZOQ MUDDATLI ASORATLAR VA REABILITATSIYA STRATEGIYALARI (ADABIYOTLAR SHARHI) 70
Atayeva Farzona Nuriddinovna

KATTALARDA MODIFIKATSIYALANGAN INTRAMEDULLYAR VINTLAR YORDAMIDA KAFT SUYAKLARI SINIQLARINI KAM INVAZIV OSTEOSINTEZ QILISH 75
Xudoyorov Farhod Rustamovich

CLINICAL AND PROGNOSTIC FACTORS OF FUNCTIONAL RECOVERY IN PATIENTS WITH HEMORRHAGIC STROKE 80
Gulchekhra Erkinovna Usmanova, Rakhimbaeva Gulnara Sattarovna

УСОВЕРШЕНСТВОВАННАЯ МЕТОДИКА ДИНАМИЧЕСКОЙ АНГИОНЕФРОСЦИНТИГРАФИИ ДЛЯ РАСШИРЕННОЙ КОЛИЧЕСТВЕННОЙ ОЦЕНКИ ФУНКЦИИ ПОЧЕК 85
Хикматов Акром Азимджанович

ОБЩИЕ ПОКАЗАТЕЛИ АДАПТАЦИИ СРЕДИ ИНОСТРАННЫХ И МЕСТНЫХ СТУДЕНТОВ 90
Калим Мухаммад Раза

КОМПЛЕКСНЫЙ АЛГОРИТМ МЕДИКО-СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ БОЛЬНЫМ ТУБЕРКУЛЁЗОМ КОСТЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СОВРЕМЕННЫХ СРЕДСТВ МЕСТНОЙ ТЕРАПИИ 95
Тимур Зафарович Абдуллаев

TAJRIBAVIY ALKOGOL INTOKSIKATSIYASI TA'SIRIDA UCH OYLIK KALAMUSHLAR OSHQOZON OSTI BEZINING MORFOLOGIK O'ZGARISHLARI 100
Axmatov Azizbek Avaz o'g'li, Rajabov Axtam Boltabayevich

FERTIL YOSHDAGI AYOLLARDA MIGREN NING KLINIK-NEVROLOGIK XUSUSIYATLARI 104
Qudratova Nigora Burxonovna, Kamalova Malika Ilhomovna

МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ПРИ ДОЛИХОСИГМЕ В РАЗНЫХ ВОЗРАСТНЫХ ПЕРИОДАХ У ДЕТЕЙ 108
Исраилов Махамадсодик Солиевич, Камалова Малика Илхомовна

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA 2017–2026 YILLARDA POSTASFIKTIK HOLATLARNING DINAMIKASI VA UMUMIY EPIDEMIOLOGIK TAVSIFI 113
Xakimov Sarvar Abduazimovich, Kamalova Malika Ilxamovna

OIV INFEKSIYASINING GIYOHVAND MODDALARGA TOBELIK BILAN KOMORBID KECHISHIDA VIROSOLOGIK-IMMUNOLOGIK KO'RSATKICHLARNING XUSUSIYATLARI 119
Kenjayeva Nargiza Quvatovna

BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA YORDAMI MUASSASASIDA ONKOSKRININGNI TASHKIL ETISH VA SUT BEZI SARATONINI ERTA ANIQLASH NATIJALARINING TAHLILI 125
Abduraximova Lola Anvarovna, Komilova Latofat Bahridinovna

КОНТРОЛЬ ПОСЛЕОПЕРАЦИОННОГО БОЛЕВОГО СИНДРОМА И ДЫХАТЕЛЬНАЯ ФУНКЦИЯ У ПАЦИЕНТОВ С ГНОЙНО-СЕПТИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ ГРУДНОЙ КЛЕТКИ 132
Бектемирова Норбуви Тухтаевна, Атаков Сарвар Султанбаивич

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ДЕТСКОЙ ЭНДОКРИНОЛОГИИ: РАЗРАБОТКА И КЛИНИЧЕСКАЯ ВАЛИДАЦИЯ АВТОМАТИЗИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ОЦЕНКИ КОСТНОГО ВОЗРАСТА 138
Каланходжаева Шахноза Бахтияровна, Алимова Насиба Усмановна, Акбаров Мухаммадаъзам Хусанбек углы

РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ СТОМАТОЛОГИЧЕСКИХ ПАТОЛОГИЙ СРЕДИ ВЗРОСЛОГО НАСЕЛЕНИЯ, НУЖДАЮЩЕГОСЯ ВО ВРЕМЕННОМ ОРТОПЕДИЧЕСКОМ ПРОТЕЗИРОВАНИИ 144
Кобилжонов Жахонгир Кобилович, Абдувакилов Жахонгир Убайдуллаевич, Фаттахов Равшан Абдурашидович, Аббасов Азиз Кабилович

CLINICAL EXPERIENCE WITH A FLEXIBLE NYLON OBTURATOR IN A PATIENT WITH AN ACQUIRED MAXILLARY DEFECT 154
Rikhsieva Dildora Ulug'bek qizi

ГЕНОТИП-ФЕНОТИПИЧЕСКАЯ ВЗАИМОСВЯЗЬ ПОЛИМОРФИЗМА NOS3 4a/4b (rs61722009) С МАРКЕРАМИ СТРУКТУРНО-ФУНКЦИОНАЛЬНОГО ПОВРЕЖДЕНИЯ ПОЧЕК ПРИ САХАРНОМ ДИАБЕТЕ 2 ТИПА 159
Барно Хабибуллаевна Шагазатова, Зиёда Акзамовна Рахимбердиева

BO'LAJAK SHIFOKORLARDA INFEKSION XAVFSIZLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI 164
Xujaeva Shaxnoz Absamatovna



BO‘LAJAK SHIFOKORLARDA INFEKSION XAVFSIZLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Xujaeva Shaxnoz Absamatovna
Alfraganus universiteti NOOT tibbiyot kafedrasi dotsenti, t. f. n.
ORCID: 0009-0007-8045-3059
E-mail: shaxnoz-7273@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak shifokorlarda infeksion xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning nazariy va metodologik asoslari yoritilgan. Infeksion xavfsizlik madaniyati tibbiy ta’lim jarayonida talabalarning infeksiyalarning tarqalish mexanizmlari, profilaktika usullari, standart ehtiyot choralari, shaxsiy himoya vositalaridan to‘g‘ri foydalanish, qo‘l gigiyenasi, tibbiy asboblarni dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish, in’eksion xavfsizlik hamda antimikrob preparatlardan oqilona foydalanishga oid bilim, ko‘nikma va kasbiy qadriyatlarini integratsiyalashgan holda shakllantirishni nazarda tutadi. Tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va aksiologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zarurligi asoslangan. Infeksion xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda simulyatsion ta’lim, klinik vaziyatlar tahlili, interaktiv pedagogik texnologiyalar, refleksiya va obyektiv baholash mexanizmlaridan foydalanishning ahamiyati ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: infeksion xavfsizlik, infeksiya profilaktikasi va nazorati, bo‘lajak shifokor, kasbiy kompetentlik, tibbiy ta’lim, xavfsizlik madaniyati, standart ehtiyot choralari, qo‘l gigiyenasi, simulyatsion ta’lim, pedagogik texnologiyalar.

Abstract: This article addresses the theoretical and methodological foundations of developing an infection safety culture among future physicians. Infection safety culture in medical education is considered an integrative professional quality that encompasses knowledge and skills related to the mechanisms of infection transmission, infection prevention, standard precautions, appropriate use of personal protective equipment, hand hygiene, disinfection and sterilization of medical instruments, injection safety, and the rational use of antimicrobial agents. The necessity of integrating systemic, competency-based, learner-centered, activity-based, and axiological approaches is substantiated. The importance of simulation-based learning, clinical case analysis, interactive pedagogical technologies, reflection, and objective assessment mechanisms in developing an infection safety culture among future physicians is highlighted.

Key words: infection safety, infection prevention and control, future physician, professional competence, medical education, safety culture, standard precautions, hand hygiene, simulation-based learning, pedagogical technologies.

Аннотация: В данной статье освещены теоретико-методологические основы формирования культуры инфекционной безопасности у будущих врачей. Культура инфекционной безопасности в процессе медицинского образования рассматривается как интегративное профессиональное качество, включающее знания и навыки в области механизмов распространения инфекций, профилактики инфекций, стандартных мер предосторожности, правильного использования средств индивидуальной защиты, гигиены рук, дезинфекции и стерилизации медицинских инструментов, инъекционной безопасности, а также рационального применения антимикробных препаратов. Обоснована необходимость интеграции системного, компетентностного, личностно-ориентированного, деятельностного и аксиологического подходов. Показана значимость использования симуляционного обучения, анализа клинических ситуаций, интерактивных педагогических технологий, рефлексии и объективных механизмов оценки в процессе формирования культуры инфекционной безопасности у будущих врачей.

Ключевые слова: инфекционная безопасность, профилактика и контроль инфекций, будущий врач, профессиональная компетентность, медицинское образование, культура безопасности, стандартные меры предосторожности, гигиена рук, симуляционное обучение, педагогические технологии.

KIRISH

Zamonaviy tibbiyotda bemor xavfsizligini ta’minlash tibbiy xizmat sifatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Tibbiy yordam ko‘rsatish jarayonida infeksiyalarning bemorlar, tibbiyot xodimlari va boshqa shaxslar o‘rtasida tarqalishining oldini olish nafaqat sanitariya-epidemiologik talablarni bajarish, balki tibbiy xodimning kasbiy madaniyati va mas’uliyati bilan ham bevosita bog‘liq. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq infeksiyalar bemorlar salomatligiga jiddiy zarar yetkazuvchi muammolardan biri bo‘lib, ularning ma’lum qismini samarali infeksiya profilaktikasi va nazorati choralari orqali oldini olish mumkin. Shu nuqtai nazardan, tibbiy oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak shifokorlarni nafaqat klinik bilim va amaliy ko‘nikmalar bilan ta’minlash, balki ularda infeksion xavfsizlikka nisbatan barqaror kasbiy munosabatni shakllantirish ham muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Chunki talabaning ta’lim davrida o‘zlashtirgan infeksiya profilaktikasiga oid bilim va xulq-atvor namunalari uning keyingi kasbiy faoliyatidagi amaliy harakatlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti infeksiya profilaktikasi va nazorati dasturlarining asosiy komponentlari qatorida ta’lim va treningni alohida yo‘nalish sifatida belgilagan. Bunda tibbiyot xodimlarini faqat nazariy ma’lumotlar bilan ta’minlash emas, balki infeksion xavflarni aniqlash, ularni baholash, profilaktik choralarni tanlash va amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sog‘liqni saqlash tizimida infeksiyalarning oldini olish va nazorat qilish (Infection Prevention and Control — IPC) bemor xavfsizligi, tibbiy xizmat sifati va tibbiyot xodimlarining kasbiy xavfsizligini ta’minlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda infeksiya profilaktikasi faqat sanitariya-epidemiologik talablarga rioya qilish bilan cheklanmasdan, tibbiy muassasaning tashkiliy muhiti, xodimlarning bilim va ko‘nikmalari, xavfsiz xulq-atvori hamda xavfsizlik madaniyati bilan uzviy bog‘liq kompleks tizim sifatida qaralmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2024-yilgi global hisobotida sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq infeksiyalar har kuni bemorlar va sog‘liqni saqlash tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, ularning bir qismini samarali infeksiya profilaktikasi va nazorati hamda suv, sanitariya va gigiyena choralari orqali oldini olish mumkinligi ta’kidlangan [1]. WHOning 2016-yilda ishlab chiqilgan infeksiya profilaktikasi va nazorati dasturlarining asosiy komponentlariga oid qo‘llanmasida IPC dasturlarining samaradorligi faqat klinik protokollarning mavjudligiga emas, balki ta’lim va o‘qitish, monitoring, qayta aloqa, ish yuritish va tibbiy muassasada xavfsizlik muhitini shakllantirish kabi komponentlarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan [2].

Bu yondashuv infeksion xavfsizlikni alohida amaliy ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida emas, balki tibbiy tashkilotdagi barcha ishtirokchilarning kasbiy faoliyatiga singdirilgan tizimli madaniyat sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi. Infeksion xavfsizlik madaniyati tushunchasi bemor xavfsizligi madaniyati bilan yaqin bog‘liq bo‘lib, tibbiyot xodimining xavflarni anglashi, xavfsiz amaliyot tamoyillariga amal qilishi, xato va xavfli holatlarni aniqlay olishi, profilaktik choralarni o‘z vaqtida qo‘llashi va o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilishi kabi xususiyatlarni qamrab oladi. WHOning bemorlar xavfsizligi bo‘yicha global harakat rejasida tibbiy yordam ko‘rsatishda oldini olish mumkin bo‘lgan zararlarni kamaytirish, xavfsizlikni tibbiy ta’lim va kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismiga aylantirish muhim strategik vazifa sifatida belgilangan [3]. Shu sababli infeksion xavfsizlik madaniyatini bo‘lajak shifokorlarning kasbiy kompetentligining muhim qismi sifatida shakllantirish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi. Tibbiy ta’limda infeksiya profilaktikasiga oid bilimlarni erta bosqichdan shakllantirish masalasi so‘nggi yillarda alohida ahamiyat kasb etmoqda. WHO tomonidan 2025-yilda ishlab chiqilgan “Infection prevention and control pre-service education and training curriculum” hujjati aynan sog‘liqni saqlash yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda bo‘lajak tibbiyot xodimlarida xavfsiz tibbiy yordam ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va xulq-atvor kompetensiyalarini shakllantirish maqsadi belgilangan [4]. Mazkur yondashuv infeksion nazoratni o‘quv dasturining alohida, cheklangan mavzusi sifatida emas, balki bo‘lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligiga integratsiya qilinishi lozim bo‘lgan kompetensiya sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlarda infeksion xavfsizlik bo‘yicha tayyorgarlikning mazmuni bir nechta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarni qamrab olishi ta’kidlanadi. Ularga infeksiyalarning yuqish mexanizmlari va yo‘llari, standart ehtiyot choralari, qo‘l gigiyenasi, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, xavfsiz in’eksiya amaliyoti, tibbiy asboblarni tozalash va dezinfeksiya qilish, tibbiy chiqindilar bilan xavfsiz ishlash, bemorlarni izolyatsiya qilish, respirator gigiyena va antimikrob preparatlardan oqilona foydalanish kiradi [1; 4]. Shu jihatdan, bo‘lajak shifokorning infeksion xavfsizlikka oid tayyorgarligi faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmasligi, balki ushbu bilimlarni real va modellashtirilgan klinik vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini ham qamrab olishi lozim. Qo‘l gigiyenasi infeksiya profilaktikasining eng muhim va asosiy elementlaridan biri sifatida qaraladi. WHOning qo‘l gigiyenasi bo‘yicha tavsiyalarida tibbiy yordam ko‘rsatish jarayonida mikroorganizmlarning tarqalishini kamaytirishda qo‘l

gigiyenasining markaziy ahamiyati asoslangan [5]. “Five Moments for Hand Hygiene” konsepsiyasi tibbiyot xodimi qachon qo‘l gigiyenasini bajarishi kerakligini aniq belgilab, mazkur ko‘nikmani standartlashtirish imkonini bergan [6]. Shuning uchun talabalarda qo‘l gigiyenasiga oid bilimni shakllantirish bilan birga, uni avtomatlashgan xavfsiz kasbiy xulq-atvorga aylantirish ta’lim jarayonining muhim natijalaridan biri bo‘lishi kerak. Standart ehtiyot choralari ham bo‘lajak shifokorlarning infeksion xavfsizlik kompetensiyalarida muhim o‘rin tutadi. CDC tavsiyalariga ko‘ra, standart ehtiyot choralari infeksiya mavjudligi tasdiqlangan yoki gumon qilingan bemorlargagina emas, balki barcha bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatish jarayonida qo‘llanilishi lozim [7]. Bu yondashuv talabalarda “infeksiyali bemor” va “infeksiyasiz bemor” o‘rtasida xavfsizlik choralarini sun’iy ajratishdan ko‘ra, har qanday klinik muloqotda universal xavfsizlik tamoyillariga amal qilish ko‘nikmasini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Infeksiya profilaktikasi va antimikrob rezistentlik(AMR) muammosi ham zamonaviy adabiyotlarda o‘zaro chambarchas bog‘liq masalalar sifatida qaraladi. WHOning global hisobotlarida sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq infeksiyalar antimikrob rezistentlikning muhim omillaridan biri ekani qayd etilgan [1]. Infeksiyalarning oldini olish orqali antimikrob preparatlarga ehtiyojni kamaytirish, antibiotiklarni oqilona qo‘llash, mikrobiologik diagnostika natijalaridan to‘g‘ri foydalanish va infeksiyalarni epidemiologik nazorat qilish yagona profilaktik strategiyaning o‘zaro bog‘liq elementlaridir. Shuning uchun bo‘lajak shifokorlarda infeksion xavfsizlik madaniyatini shakllantirish antimikrob preparatlarni ratsional qo‘llash madaniyatini ham qamrab olishi maqsadga muvofiq [8]. Talabalarning infeksiya profilaktikasi bo‘yicha bilim, munosabat va amaliyotini o‘rgangan tadqiqotlar ham mazkur masalaning dolzarbligini ko‘rsatadi. Masalan, 2024-yilda e’lon qilingan tibbiyot talabalari o‘rtasida standart infeksiya nazorati ehtiyot choralari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda bilim, munosabat va amaliy xulq-atvorning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganilgan [9]. Bunday tadqiqotlar tibbiy ta’limda talabalarning infeksiya profilaktikasiga oid nazariy bilimlari mavjud bo‘lishi avtomatik ravishda xavfsiz amaliyot shakllanganini anglatmasligini ko‘rsatadi. Demak, ta’lim natijalarini baholashda bilim bilan bir qatorda amaliy ko‘nikma, kasbiy munosabat va xulq-atvorni ham hisobga olish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

So‘nggi yillarda infeksiya profilaktikasi ta’limida simulyatsion o‘qitish texnologiyalariga qiziqish sezilarli darajada ortdi. Simulyatsiya talabaga real bemorga zarar yetkazish xavfisiz klinik vaziyatni modellashtirish, amaliy harakatlarni takroriy bajarish, xatolarini tahlil qilish va qayta bajarish imkonini beradi. Tibbiy va sog‘liqni saqlash yo‘nalishlari talabalari uchun simulyatsiyaga asoslangan IPC ta’limi bo‘yicha 2025-yilda chop etilgan sistematik sharhda simulyatsion yondashuvlar bilim bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalar, qaror qabul qilish, muammoni hal qilish, o‘z-o‘zini tahlil qilish va ta’limdan qoniqish kabi natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Shu bilan birga, an’anaviy ma’ruza usullari nazariy bilimlarni mustahkamlashda foydali ekani, simulyatsion usullar esa amaliy ko‘nikma va munosabatlarni rivojlantirishda ustunlik qilishi ta’kidlangan [10]. Interaktiv pedagogik texnologiyalarni infeksion xavfsizlik ta’limiga integratsiya qilish ham metodologik jihatdan istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Klinik vaziyatlarni tahlil qilish, keys-stadi, rolli o‘yinlar, muammoli ta’lim, refleksiv topshiriqlar va simulyatsion ssenariylar talabani passiv axborot qabul qiluvchidan ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Bunday yondashuv kompetensiyaviy ta’lim tamoyillariga mos kelib, «nimani biladi?» degan savoldan «bilimini klinik vaziyatda qanday qo‘llaydi?» degan savolga o‘tishni ta’minlaydi.

Bo‘lajak shifokorlarda infeksion xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda refleksiyaning o‘rni ham alohida ahamiyatga ega. Talaba bajargan amaliy harakatlarini tahlil qilishi, yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlashi va ularni bartaraf etish strategiyasini ishlab chiqishi orqali xavfsizlikka yo‘naltirilgan kasbiy tafakkur rivojlanadi. Bunday yondashuv bemor xavfsizligi ta’limi bo‘yicha tadqiqotlarda ham qo‘llab-quvvatlangan bo‘lib, tibbiy ta’limda xavfsizlik mavzularini o‘qitishning samarasi ta’lim mazmuni bilan bir qatorda o‘qitish metodlari va ta’lim muhitiga ham bog‘liq ekani ko‘rsatilgan [11]. Shunday qilib, adabiyotlar tahlili infeksion xavfsizlik madaniyatini bo‘lajak shifokorning faqat infeksiya profilaktikasiga oid bilimlari sifatida emas, balki bilim, kasbiy qadriyat, motivatsiya, amaliy ko‘nikma va refleksiv qobiliyatlarni birlashtiruvchi integrativ kasbiy sifat sifatida qarash imkonini beradi. Zamonaviy xalqaro hujjatlarda ham IPC ta’limining asosiy maqsadi bo‘lajak tibbiyot xodimlarini xavfsiz tibbiy yordam ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va xulq-atvor kompetensiyalari bilan ta’minlash sifatida belgilanmoqda [4].

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarning katta qismi infeksiya profilaktikasining alohida elementlari — qo‘l gigiyenasi, standart ehtiyot choralari, shaxsiy himoya vositalari, simulyatsion ta’lim yoki infeksion nazorat bo‘yicha bilimlarni baholashga qaratilgan. Bu tadqiqotlarda infeksion xavfsizlikning pedagogik mazmunini yaxlit tizim sifatida, ya’ni kognitiv, aksiologik, motivatsion, operatsion-faoliyat va refleksiv komponentlarning birligi asosida shakllantirish masalasi nisbatan kam yoritilgan. Ayniqsa, mazkur komponentlarni yagona pedagogik texnologiyalar tizimi, diagnostika mezonlari va baholash mexanizmlari bilan integratsiya qilish masalasi ilmiy jihatdan dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak shifokorlarda infeksion xavfsizlik madaniyatini

shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishda tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va aksiologik yondashuvlarni integratsiyalash maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv infeksion xavfsizlikni tayyor qoidalar majmuasi sifatida emas, balki bo‘lajak shifokorning kasbiy identifikatsiyasi va kundalik klinik faoliyatiga singdirilgan barqaror xavfsizlik madaniyati sifatida shakllantirish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Infeksion xavfsizlik madaniyati tushunchasini pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilganda, uni bo‘lajak shifokorning infeksion xavflarni anglashi, xavfsiz tibbiy amaliyot tamoyillariga amal qilishi, bemor va tibbiyot xodimining salomatligini muhofaza qilishga mas’uliyatli munosabati hamda xavfsiz xulq-atvorni muntazam namoyon etishi bilan tavsiflanadigan integrativ kasbiy sifat sifatida qarash mumkin. Mazkur tushunchaning mazmuni bir nechta o‘zaro bog‘liq komponentlarni qamrab oladi. Birinchi navbatda, kognitiv komponent talabaning infeksion kasalliklar etiologiyasi va epidemiologiyasi, infeksiya yuqish yo‘llari, infeksiya manbalari, yuqish mexanizmlari, tibbiy muassasada infeksiya tarqalishiga ta’sir qiluvchi omillar hamda profilaktika choralari haqidagi bilimlarini ifodalaydi. Aksiologik komponent infeksion xavfsizlikning kasbiy qadriyat sifatida qabul qilinishi bilan bog‘liq. Bunda talaba bemor xavfsizligi, tibbiyot xodimi salomatligi, jamoat salomatligi va tibbiy etika talablarini o‘z kasbiy faoliyatining ajralmas qismi sifatida anglaydi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining Bemorlar xavfsizligi bo‘yicha global harakat rejasida ham tibbiy yordam ko‘rsatish jarayonida oldini olish mumkin bo‘lgan zararlarni kamaytirish va xavfsiz tibbiy xizmat ko‘rsatish strategik vazifa sifatida belgilangan [3]. Motivatsion komponent talabaning infeksion xavfsizlik qoidalariga amal qilishga ichki ehtiyoji va kasbiy mas’uliyatini qamrab oladi. Infeksion xavfsizlik madaniyati tashqi nazorat yoki jazodan qo‘rqish asosida emas, balki shifokorning «avvalo zarar yetkazma» tamoyilini amaliy faoliyatida namoyon etishiga asoslanishi lozim. Operatsion-faoliyat komponenti esa infeksion xavfsizlikka oid amaliy harakatlarni bajarish qobiliyatini nazarda tutadi. Jumladan, qo‘l gigiyenasini to‘g‘ri bajarish, shaxsiy himoya vositalarini xavf darajasiga mos tanlash, tibbiy asbob-uskunalarni xavfsiz ishlatish, tibbiy chiqindilarni to‘g‘ri ajratish, in’eksion xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va infeksiya yuqish xavfi mavjud bo‘lgan vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish shular jumlasidandir. CDC tavsiyalarida standart ehtiyot choralari barcha bemorlarga, ularda infeksiya mavjudligi tasdiqlangan yoki tasdiqlanmaganidan qat’i nazar, qo‘llanilishi kerakligi ta’kidlangan [4; 5].

Bunda qo‘l gigiyenasi, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, nafas yo‘llari gigiyenasi, bemorlarni to‘g‘ri joylashtirish, tibbiy asboblarni tozalash va dezinfeksiya qilish, xavfsiz in’eksiya amaliyoti kabi choralar infeksiya profilaktikasining fundamental elementlari hisoblanadi. Demak, bo‘lajak shifokorda infeksion xavfsizlik madaniyatini shakllantirish jarayoni nazariy bilimni amaliy faoliyatga transformatsiya qilishga yo‘naltirilishi lozim. Infeksion xavfsizlik madaniyatining yana bir muhim elementi refleksiv komponent hisoblanadi. Talaba o‘zining amaliy harakatlarini tahlil qila olishi, xatolarni aniqlashi, ularning sabablarini tushunishi va kelgusida takrorlanishining oldini olish bo‘yicha xulosa chiqarishi kerak. Bu yondashuv tibbiy ta’limda xavfsizlikka yo‘naltirilgan kasbiy tafakkurni rivojlantirish imkonini beradi. Infeksion xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning metodologik asosini bir nechta yondashuvlarning integratsiyasi tashkil etishi maqsadga muvofiq. Tizimli yondashuv infeksion xavfsizlik madaniyatini alohida bilim yoki ko‘nikma emas, balki o‘zaro bog‘liq kognitiv, motivatsion, aksiologik, operatsion va refleksiv komponentlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Bunday yondashuvda ta’lim maqsadi, mazmuni, metodlari, pedagogik texnologiyalari va baholash mezonlari yagona tizimga birlashtiriladi. Kompetensiyaviy yondashuv bo‘lajak shifokorning infeksion xavfsizlikka oid bilimlarini real klinik vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini ustuvor qo‘yadi. Bunda «nimani biladi?» degan savol bilan bir qatorda «bilimini amaliyotda qanday qo‘llaydi?» degan mezon ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ta’lim natijasi faqat test natijalari bilan emas, balki amaliy topshiriqlar, klinik ssenariylar, simulyatsiya va kuzatuv asosida ham baholanishi zarur.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv talabaning individual tajribasi, ehtiyojlari, kasbiy qiziqishlari va shaxsiy mas’uliyatini hisobga olishni nazarda tutadi. Infeksion xavfsizlik madaniyati tashqi talablar majmuasi emas, balki talabaning ichki kasbiy pozitsiyasiga aylanishi kerak. Faoliyatga asoslangan yondashuv esa infeksion xavfsizlik ko‘nikmalarini amaliy faoliyat orqali shakllantirishga imkon beradi. Masalan, talabalarga qo‘l gigiyenasi algoritmini bajarish, shaxsiy himoya vositalarini tanlash, tibbiy chiqindilarni saralash yoki infeksion xavf mavjud bo‘lgan klinik vaziyatda harakatlar algoritmini ishlab chiqish kabi vazifalar berilishi mumkin. Aksiologik yondashuv infeksion xavfsizlikni kasbiy qadriyatlar tizimi bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Bunda bemor huquqlari, tibbiy etika, kasbiy mas’uliyat, jamoa xavfsizligi va jamoat salomatligi kabi qadriyatlar ta’lim mazmuniga integratsiya qilinadi. Pedagogik jarayonda interaktiv va amaliy texnologiyalardan foydalanish infeksion xavfsizlik madaniyatini shakllantirish samaradorligini oshirishi mumkin. Xususan, FSMU, SCAMPER, Bloom taksonomiyasi, keys-stadi, muammoli ta’lim, rolli o‘yinlar, klinik ssenariylar va simulyatsion mashg‘ulotlar talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Masalan, FSMU texnologiyasi orqali «Nima uchun qo‘l gigiyenasi infeksiya profilaktikasida asosiy chora hisoblanadi?» savoli muhokama qilinib, talabalar o‘z fikrini asoslashga o‘rgatiladi. SCAMPER texnologiyasi

infeksion xavfsizlik jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha ijodiy yechimlar ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin. Bloom taksonomiyasi esa talabalar bilimlarini oddiy eslab qolishdan tahlil qilish, baholash va yangi yechim yaratish darajasigacha bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi. Simulyatsion ta’limning ahamiyati ham alohida ta’kidlanishi lozim. Talaba real bemorga zarar yetkazish xavfisiz, maxsus modellar va klinik ssenariylar asosida infeksion xavfsizlik algoritmlarini bir necha marta bajarishi mumkin. Tibbiy va boshqa sog‘liqni saqlash yo‘nalishlari talabalari uchun infeksiya profilaktikasi va nazorati bo‘yicha ta’lim dasturlarini o‘rganishga qaratilgan sistematik tahlillar ham ushbu yo‘nalishdagi ta’limning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Infeksion xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda ta’lim jarayoni uzluksiz va bosqichma-bosqich tashkil qilinishi zarur. Birinchi bosqichda talabalarning mavjud bilimlari va munosabatlari diagnostika qilinadi. Ikkinchi bosqichda infeksion xavfsizlikning nazariy asoslari o‘zlashtiriladi. Uchinchi bosqichda amaliy ko‘nikmalar simulyatsion va klinik vaziyatlar orqali rivojlantiriladi. To‘rtinchi bosqichda talabalarning mustaqil qaror qabul qilish va refleksiya qilish qobiliyatlari baholanadi. Baholash tizimi ham ko‘p komponentli bo‘lishi lozim. Unda kognitiv darajani aniqlash uchun test va yozma topshiriqlar, amaliy kompetensiyalarni baholash uchun chek-listlar va obyektiv strukturalangan klinik imtihon elementlari, motivatsion va aksiologik komponentlarni baholash uchun anketa va shkalalar, refleksiv komponentni aniqlash uchun portfolio va refleksiv yozuvlardan foydalanish mumkin. Bunday yondashuv infeksion xavfsizlik madaniyatini faqat «qoidalarni bilish» darajasida emas, balki bilim–qadriyat–motivatsiya–ko‘nikma–refleksiya yaxlitligi sifatida baholash imkonini beradi. WHOning infeksiya profilaktikasi va nazorati bo‘yicha asosiy komponentlarida ham ta’lim va trening bilan bir qatorda infeksiyalarni epidemiologik kuzatish, monitoring va natijalar bo‘yicha qayta aloqa mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilgan [1].

Shuningdek, infeksion xavfsizlik madaniyatini shakllantirish antimikrob preparatlarga rezistentlik muammosi bilan ham uzviy bog‘liq. Infeksiyalarning oldini olish orqali antibiotiklarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirish, antibiotiklarni oqilona qo‘llash va mikrobiologik diagnostika natijalaridan to‘g‘ri foydalanish tibbiy ta’limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. WHO global hisobotida infeksiya profilaktikasi va nazorati antimikrob rezistentlikka qarshi kurashning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi [2; 7]. Shunday qilib, bo‘lajak shifokorlarda infeksion xavfsizlik madaniyatini shakllantirishni pedagogik tizim sifatida tashkil etish uchun uning maqsadi, mazmuni, metodlari, texnologiyalari va baholash mezonlari o‘zaro mantiqiy bog‘langan bo‘lishi kerak. Bu jarayonda talabaning faqat infeksion kasalliklar haqidagi bilimi emas, balki xavfni oldindan ko‘ra bilishi, to‘g‘ri qaror qabul qilishi, profilaktika choralarini mustaqil amalga oshirishi va o‘z faoliyati natijalarini baholay olishi asosiy natija sifatida qaraladi.

XULOSA

Bo‘lajak shifokorlarda infeksion xavfsizlik madaniyatini shakllantirish zamonaviy tibbiy ta’limning muhim pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Infeksion xavfsizlik madaniyati integrativ kasbiy sifat bo‘lib, uning tarkibiga kognitiv, aksiologik, motivatsion, operatsion-faoliyat va refleksiv komponentlarni kiritish maqsadga muvofiq. Mazkur madaniyatni shakllantirishda tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va aksiologik yondashuvlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish samarali metodologik asos bo‘la oladi. Ta’lim jarayonida interaktiv pedagogik texnologiyalar, keyslar, klinik ssenariylar, simulyatsion mashg‘ulotlar, refleksiya va ko‘p komponentli baholash tizimidan foydalanish talabalarning infeksion xavfsizlikka oid bilim va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi. Natijada bo‘lajak shifokorda infeksion xavfsizlik qoidalariga rasmiy rioya qilish emas, balki ularni kasbiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida qabul qilish, xavfni oldindan baholash va bemor, tibbiyot xodimi hamda jamoat salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan barqaror kasbiy xulq-atvorni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Health Organization. *Global report on infection prevention and control 2024.* Geneva: World Health Organization; 2024. 210 p. ISBN: 978-92-4-010398-6.
2. World Health Organization. *Guidelines on core components of infection prevention and control programmes at the national and acute health care facility level*. Geneva: World Health Organization; 2016. ISBN: 978-92-4-154992-9.
3. World Health Organization. *Global Patient Safety Action Plan 2021–2030: Towards eliminating avoidable harm in health care.* Geneva: World Health Organization; 2021. ISBN: 978-92-4-003270-5.
4. World Health Organization. *Infection prevention and control pre-service education and training curriculum: foundational content for all health and care workers.* Geneva: World Health Organization; 2025. 82 p. ISBN: 978-92-4-010996-4.
5. World Health Organization. *WHO guidelines on hand hygiene in health care*. Geneva: World Health Organization; 2009. ISBN: 978-92-4-159790-6.

6. World Health Organization. *WHO multimodal hand hygiene improvement strategy: implementation guide*. Geneva: World Health Organization; 2009.
7. Centers for Disease Control and Prevention. *Standard Precautions for All Patient Care*. Atlanta: Centers for Disease Control and Prevention; 2024.
8. World Health Organization. *Global action plan on antimicrobial resistance.* Geneva: World Health Organization; 2015. ISBN: 978-92-4-150976-3.
9. Alshammari S.A., Alrasheed S.S., Alruhaimi W.A., et al. Knowledge, Attitude, and Practice of Standard Infection Control Precautions Among Medical Students at King Khalid University Hospital. *Cureus*. 2024;16(6). doi:10.7759/cureus.62768.
10. Yoshikawa A., Tashiro N., Ohtsuka H., et al. Simulation-based infection prevention and control training for medical and healthcare students: a systematic review. *Journal of General and Family Medicine*. 2025.
11. Kirkman M.A., Sevdalis N., Arora S., et al. The outcomes of recent patient safety education interventions for trainee physicians and medical students: a systematic review. *BMJ Open*. 2015;5(5). doi:10.1136/bmjopen-2014-007705.
12. World Health Organization. *Infection prevention and control in-service education and training curriculum.* Geneva: World Health Organization; 2024. ISBN: 978-92-4-009412-3.

TIBBIYOT
TA'LIMI & INNOVATSIYALARI

2026. № 8

Muharrir: Sherzod Qurbonov

Mas’ul kotib: Surmaniso Mirzaliyeva

Dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Tibbiyot ta'limi va innovasiyalari” ilmi elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @munis_sm
Tel.: 97 748 70 03





Google scholar

PubMed MEDLINE
NIH U.S. National Library of Medicine National Institutes of Health
Advancing Health Through Knowledge